

RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH VA UNING IMKONIYATLARI

Isroiljonov Qobiljon

Tashkent International

University 2-kurs talabasi.

Telefon raqam: +998994616355 e-mail: isroiljonov.k55@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17602019>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi murojaatnomasi mamlakatni 2017–2021 yillarda har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan **Harakatlar strategiyasida** belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalq farovonligini oshirishda muhim dastur sifatida xizmat qiladi. U nafaqat joriy yil uchun, balki uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan rejalashtirish dasturi hamdir.

Harakatlar strategiyasini hayotga tatbiq etish jarayonida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va innovatsiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, resurslardan oqilona foydalanish va raqamli iqtisodiyotga o‘tish bu jarayonning asosiy omillaridan biridir.

Raqamli texnologiyalarni boshqaruv tizimiga keng tatbiq etish hamda elektron hukumatni shakllantirish, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida migratsiya, turizm, xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar va kommunikatsiya vositalarining kengayishi har qanday davlat iqtisodiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston ham xalqaro iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylangan. Buni tashqi iqtisodiy aloqalarimizning kengayishi, xorijiy hamkorlikda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va texnologik yangilanish dasturlari, xalqaro savdoga integratsiyalashuv jarayonlari yaqqol ko‘rsatmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish axborot texnologiyalarini jadal rivojlantirishni taqozo etdi. “Axborotlashtirish”, “kompyuterlashtirish”, “elektron hukumat”, “ochiq ta’lim” kabi tushunchalar hayotimizda mustahkam o‘rin egalladi. Axborot tizimlari va texnologiyalari tobora ko‘proq sohalarda qo‘llanilmoqda.

Ularning asosiy maqsadi — jamiyat va inson faoliyatini axborot bilan ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishdir.

Rivojlangan davlatlar hozirda postindustrial bosqichga o‘tgan bo‘lib, raqamli iqtisodiyot ularning taraqqiyotida yetakchi o‘rinni egallamoqda.

Raqamli iqtisodiyot — bu bilim, ma’lumot va raqamli axborot ishlab chiqarishning bosh omiliga aylangan yangi iqtisodiy tizimdir.

Unda zamonaviy axborot tarmoqlari va texnologiyalar orqali iqtisodiy tuzilma optimallashtiriladi, ishlab chiqarish unumdorligi oshiriladi.

Raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos jihati shundaki, unda asosiy resurs — ilm va innovatsiyadir.

Endilikda iqtisodiy o‘shishning manbai faqat kapital yoki mehnat emas, balki bilimga asoslangan axborot oqimlaridir. Nomoddiy resurslar (axborot, ixtiro, ilm, texnologiya) ustuvor o‘ringa chiqmoqda. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli iqtisodiyot quyidagi to‘rtta ustun yo‘nalishga tayanadi:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va innovatsiyalarni rivojlantirish;
- Ishchi kuchining malakasini oshirish;
- Iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini ta‘minlash;
- Samarali axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

Raqamli axborot bugungi kunda tovar va kapitalning yangi shakliga aylandi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatning XXI asr talablariga javob bera olishini ta‘minlaydi. Bu yo‘l orqali O‘zbekiston tabiiy resurslardan samarali foydalanuvchi, yuqori texnologiyalarga tayanadigan ilg‘or davlatga aylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, aholining farovonligini oshirish va iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadida **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** dasturi ishlab chiqilgan. Unda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- Raqamli infratuzilmani yaratish, AKTni rivojlantirish, “Aqlli shaharlar” va “Xavfsiz shaharlar” loyihalarini amalga oshirish;
- Raqamli innovatsiyalar ekotizimini shakllantirish (“Innovatsion taraqqiyot biz uchun havodek zarur”);
- Axborot xavfsizligi tizimini takomillashtirish.

Jamiyat a‘zolari yangi raqamli texnologiyalarni qanchalik keng egallasa, ularning mahsulot va xizmatlari shunchalik qadrlanadi. Natijada iqtisodiy o‘sish salohiyati ortadi, mamlakat raqobatbardoshligi kuchayadi.

Manba:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni – “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.
3. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” davlat dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PQ–6079-son qarori.
4. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy sayti – <https://mitc.uz>
6. Karimov A., Jo‘raev M. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.